

# KASB-HUNAR TA'LIMI

ILMIY-USLUBIY, AMALIY, MA'RIFIY JURNAL

2024, № 4-son



# KASB-HUNAR TA'LIMI

Профессиональное образование  
Professional education

Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal  
2024-yil, 4-son

## Muassislar:

Oliy va o'rta maxsus ta'limgazalar, Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'limgazalar, boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

Bosh muharrir: Z.Y.XUDAYBERDIYEV

Ijrochi direktor: H.SIROJIDDINOV

## Tahrir hay'ati:

M.XOLMUXAMEDOV, R.X.JO'RAYEV,  
A.Q.JALALOV, A.R.XODJABAYEV,  
J.SH.SHOSALIMOV, A.NABIYEV,  
A.A.HASANOV, H.SIROJIDDINOV,  
K.M.GULYAMOV

Jurnal 2000-yildan nashr etila boshlangan. O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2007-yil 3-yanvarda qaytadan ro'yxatga olinib, 0109-raqamli guvohnoma berilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlari Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan 2017 yil 29 avgustdagi 241/8 qarori bilan Pedagogika fanlari bo'yicha dessertatsiyalar yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Manzil: 100095, Toshkent sh., Olmazor tumani  
Universitet ko'chasi, 2-uy

Tel.: 90-979-75-89; 94-677-90-32;

E-mail: kasbhunartalimi@mail.ru,  
ksbjurnal@inbox.uz.

## Nashr uchun mas'ul

H.Sirojiddinov

## Sahifalovchi:

I.Sirojiddinov

Tahririyat fikri mualif nuqtai nazariga to'g'ri  
kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar tahrir etilmaydi  
va egasiga qaytarilmaydi.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Kasb-hunar ta'limi" jurnalidan olingani izohlanishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 23.05.2024-yil.

Bichimi 60x84 1/8

Bosma tabog'i 10. Adadi 60 nusxa.

Buyurtma "PROFIEDUPRESS" MChJ  
bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Sirg'ali tumani,  
Yangi Sirg'ali ko'chasi, 18-uy

# МУНДАРИЖА

To'lg'inoval X.T. O'quvchilarni kasb-hunarga qiziqitirishda amaliyot jarayonining o'rni .....	3
Yusupova X.I. Sinergetik ta'limgazalar bo'rajak tarbiyachilarining akmeoligik kasbiy kompetentligini takomillashtirish .....	7
Namazova G.M. Oliy ta'limgazalar muassasalari talabalar uchun uzlusiz ta'limgazalar ahamiyati .....	11
Xamidova S.A. Kredit modul tizimida bo'rajak tarbiya fani o'qituvchilarida fasilitatorlik komptetsiyalarini rivojlantirish metodlari ..	15
Ergasheva O.X. Innovatsion yondoshuvlar asosida bo'rajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida ishlashga tayyorlash imkoniyatlari .....	19
Yakubova M. Maktabgacha ta'limgazalar tizimida xalq ertaklarining ahamiyati ..	23
Usmonova X.Sh. Bo'lg'usi pedagoglarda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash kompetentsiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari .....	26
G'ulomova D.Sh. Maktabgacha katta va tayyorlov guruh bolalarida nutq madaniyatini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	30
Eshpulatov M.X. 5-9-Sinf o'quvchilarida ma'naviy-tarbiyaviy kompetensiyasini rivojlantirish metod va vositalari .....	34
Baltaboev S.A. Texnologik ta'limgazalar kontseptsiyasini o'rganish: nazariya va amaliyotni birlashtirish .....	38
Anorqulov B.N. Talabalarda ommaviy sport tadbiralarini tashkil qilish va o'tkazish kompetentsiyasini rivojlantirishning mazmuni .....	42
Amonova G.M. Raqamli texnologiyalar asosida maktablarda ta'limgazalar tarbiya jarayonini tashkil qilish .....	46
Ismoilova A.A. Pedagogik mahorat fanini o'qitishda eduscrum metodidan foydalaniш .....	50
Акрамова Л.У., Убайдуллаева Ф.У. Использование приема сравнения при обучении математике в начальных классах .....	55
Tilakov A.A. Kurashchilarida ixtisoslashtirilgan idroklar .....	59
Сейтнева В.А. Методика преподавания русского языка как иностранного .....	62
Yangiboyev M. Oliy ta'limgazalar tizimini boshqarishni modernizatsiya qilish: tendentsiyalar, muammolar va strategiyalar .....	67
Raxmatov A.Sh. Raqamli ta'limgazalar mukhitida talabalarida kasbiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish .....	71
Хасанова Г.К. Теория кооперативного обучения в истории педагогического обучения .....	74
Гавхар П.Н. Интеграция английского языка и культурологических знаний об Англии как фактор повышения интеллектуальной творческой деятельности подростков .....	79
Нигматуллина Д. Раннее выявление одаренности и способностей у детей дошкольного возраста .....	84
Shukurova H. O'quvchilar savodxonligini baholashda xalqaro baholash dasturlari .....	88
Ibraimov X.I., Begijonov J. Badiiy kulolchilik mashg'ulotlarida talabalarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning uslubiy modeli ..	92
Ruziyev N.M. Rishton kulolchiligidagi Ustoz-shogird qadriyatlari va an'analari .....	96
Raxmatullayeva N.B. Hozirgi zamon ta'limgazalar tizimida pedagogning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish omillari .....	99
Исматова Н.И. Oliy ta'limda talabalarning ekologik bilimlari, k'unkimlari va madaniyatinini rivojlanishi zarur omil sifatida .....	103
Rakhimov Z.T. Zamonaliv olij taylim jaraёnida talabalar yuvubiliish kompetentligini rivojlanishi ahamiyati .....	110
Ibragimov A.G., Murodov I.T., Xujamov I.A., Nazarov S.M. Maktablarda ta'limgazalar sifatini baholash va boshqarishning hozirgi holati hamda imkoniyatlari .....	117
Mirzaeva N.A. Tabiiy fanlarni o'qitishda talabalarining individual ta'limgazalarini tashkil etishning klaster yechimi .....	121
Shukurov Sh.N. O'quvchilarida kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda o'qituvchining roli .....	127
Mamatdaliyev A. O'quvchilarida kasbiy ko'nikmalarning shakllanishida oila va ijtimoiy-madaniy muhitning ta'siri .....	131



<b>Ziyayev A.</b> Boshlang‘ich ta’limda o’quvchilar mustaqil fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishning ayrim masalalari .....	136
<b>Turg’unov M.M.</b> Talabalarni aksiologik yondashuv asosida moddiy va ma’naviy jihatlarini ko’rish .....	140
<b>Файзуллаева З.</b> Развитие коммуникативной компетентности при обучении русскому языку: взгляд на цифровое образование .....	144
<b>Рахимова Ф.Н.</b> Ижтимоий педагогик фаолиятини таомиллаштириш педагогик муаммо сифатида .....	150
<b>Xakimova S.Sh.</b> Oliy ta’limni modernizatsiyalash va talaba yoshlarni qo’llab quvvatlash masalalari .....	155
<b>Mamayusupova I.X.</b> Yetuklik davridagi shaxsnинг psixologik xususiyatlarini tasnifi .....	160
<b>Mamirov O.B.</b> Kompyuter lingvistikasini o’qitishning didaktik modeli.....	167
<b>Xazratkulova Sh.N.</b> Tarbiya fani o’qituvchilarining tarbiyaviy faoliyatini tashkil etishda kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish .....	171
<b>Kabulova S.E.</b> Kouching texnologiyalari asosida pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash .....	175
<b>Rajabov F.T.</b> Geografiya o’qituvchisini tayyorlashning uslublari va strategiyalari .....	180
<b>Bekqulov Q.Sh.</b> Tasviriy san’at va muhandislig grafikasi yo‘nalishi talabalarini mustaqil ta’lim asosida o’qitish samaradorligini oshirish metodikasi .....	184
<b>Обидова З.Н.</b> Ўқувчиларнинг ўқув билиш фаолияти натижаларини текшириш ва баҳолашда физиковий тасаввурларни ривожлантириш.....	189
<b>Jumayev I.O.</b> Chizma geometriya fanidagi to‘g’ri chiziq mavzusini talabalarga nazariy va amaliy bilimlari bog‘lligida o‘rgatish .....	194
<b>Samatova M.K.</b> Raqamlı ta’limda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o’qituvchilarida ta’lim jarayonini baholash kompetensiyalarini rivojlantirish (Kundalik.Com misolida) .....	198
<b>Boltayeva B.I., Rajabova A.</b> Boshlang‘ich sinf darslarida pirls topshiriqlaridan foydalanshan .....	204
<b>Rajabova S.Y.</b> Raqamlı transformatsiya sharoitida bo‘lajak texnologiya fani o’qituvchilarining tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish .208	
<b>Yunusov M.X.</b> Maktab yoshidagi kar bolalarda og‘zaki nutqni idrok etish va rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari .....	212
<b>Холматов Ф.</b> Интерпретация образов Фархада и Ширин в девоне Алишера Навои «Наводир уш-шабаб» .....	216
<b>Axrorova S.A.</b> O’quvchilarda duduqlanishni davolash va korreksiyalash usullari .....	222

# TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIG GRAFIKASI YO'NALISHI TALABALARINI MUSTAQIL TA'LIM ASOSIDA O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODIKASI

**BEKQULOV QUDRAT SHAYDULLOYEVICH**

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Sa'natshinoslik” fakulteti “Muhandislik  
va kompyuter grafikasi” kafedrasи p.f.f.d., v/b dotsent**

**Anatatsiya.** Talabalar tayyor bilimlarni egallahsga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarni o'zlarini qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga va imkoniboricha xulosalarni ham o'zlarini keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

**Annotation:** If students are taught to acquire ready-made knowledge, modern technologies teach them to search for the acquired knowledge by themselves, to study and analyze it independently, and to draw their own conclusions whenever possible.

**Аннотация:** Если студентов учат приобретать готовые знания, то современные технологии учат их самостоятельно искать полученные знания, самостоятельно изучать и анализировать их, по возможности делать собственные выводы.

**Kalit so'zlar:** ananaviy, mustaqil, amaliy, elektron, joizki, shakllantirish, topshiriq, modellashtirish, ta'kidlash.

**Key words:** traditional, independent, practical, electronic, appropriate, formation, assignment, modeling, highlighting

**Ключевые слова:** традиционный, независимый, практический, электронный, уместный, формирование, задание, моделирование, выделение.

Hozirgikunda ta'limgarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga qiziqish ortib bormoqda. Bunda, asosan hozirgacha talabalar tayyor bilimlarni egallahsga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarni o'zlarini qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga va imkoniboricha xulosalarni ham o'zlarini keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Innovatsiya - inglizcha so'z bo'lib, yangilik kiritish, yangilik ma'nolarini bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda talaba va pedagog faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish

bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalilaniladi. Interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlashga asoslanadi va pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lif mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabaning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. Interaktiv o'qitish bu bilish faoliyatini rivojlanirishning maxsus tashkiliy shakli bo'lib, interaktiv o'qitish jarayonida talaba o'qitishning ob'ektidan o'zaro hamkorlikning sub'ektiga aylanishi, o'quv jarayonida faol ishtiroy etishi bilan tavsiflanadi.

O'qitishning interaktiv metodlari hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, rolli o'yinlardan foydalananish, muammolarni hamkorlikda yechishda ko'rib chiqiladi.

Interaktiv o'qitish talabalardan axborotlarni o'zlashtirish jarayonida faollik,

ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, ta'lim maqsadlarining to'laqonli amalga oshishiga yordam beradi. Bunda ta'limning quyidagi kontseptsiyalari fundamental asos sifatida hizmat qiladi:

- o'quv faoliyatining asosiy negizi va natijasi, mazkur faoliyatning sub'ekti - talaba hisoblanadi;

- o'qituvchining jadal faoliyati - o'quv faoliyatining asosiy ko'rinishi sifatida namoyon bo'lib, u mazkur harakatning sub'ekti va tashkilotchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi;

- muvaffaqiyatlari o'quv faoliyatining asosiy ko'rsatkichi, uning natijasi o'quvchining fikrlash usullarini o'rganish va amaliy masalalarni ijodiy hal etish,

- erkin, mustaqil harakat qila olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat;

- o'quv faoliyatning asosiy ko'rsatkichi o'quv topshiriqlari xisoblanadi. Bunda ta'lim jarayonining asosiy sub'ekti bo'lgan talabada fikrlash, bilish harakati usullarini rivojlantiruvchi o'qitish taktikasi muhim o'rinni tutadi;

- o'quv faoliyatini amalga oshirish jarayoni talabidan o'zining shaxsiy bilish mahorati va ko'nikmalarini o'zlashtirib olishi

uchun zamin hozirlashdan iborat.

Odatda interaktiv ta'lim metodlariga asoslangan ta'limiy harakatlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi: individual, juftlik, guruh, jamoa bilan ishlash.

Interaktiv ta'lim metodlarini qo'llash jarayonida talabalar quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladi:

- guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash;

- muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;

- guruh yoki jamoadooshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish;

- o'z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olish;


- fikrlash, fikrlarni umumlashtirish, eng muhimlarini saralash;

- o'z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;

- o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish;

- turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqa olish ko'nikmalarini o'zlashtirish.

Interaktiv ta'lim muayyan belgilarga ega. Quyidagilar interaktiv ta'limga xos asosiy belgilari sanaladi (1-rasm):



**1-rasm. Interaktiv ta'limning asosiy belgilari**

Refleksiya (lot. “reflexio” – ortga qaytish, aks etish): kishining o‘z xatti-harakatlari, ularning asoslarini tushunib etishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida faoliyati; shaxsiy kechinmalari, his-tuyg‘ulari va o‘y-xayollari

mohiyatini fikrlash orqali anglash), o‘z-o‘zini tahlil qilishi.

Bugungi kunda jahon ta’lim tizimida interaktiv ta’limning quyidagi shakllarda amalga oshirilayotganligi barchaga ma’lum (2-rasm):




## 2-rasm. Interaktiv ta'limning asosiy shakllari

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, o‘qituvchidan zamonaviy texnologiyalarni bilish va ulardan o‘zining kasbiy faoliyatida o‘rinli foydalana olish malakalariga ega bo‘lshlik talab qilinadi. Oliy ta’lim muassasalarida chizma geometriya darslari o‘zining xususiyatlariga ko‘ra boshqa fanlardan birmuncha farqlanadi. O‘rganilgan ma’lumotlarning asosiy qismlari bo‘yicha talabalar individual grafik ishlarni bajaradilar va ularni tekshirish jarayonida o‘qituvchi har bir talaba bilan individual ishlashiga to‘g‘ri keladi. Amalda talaba chizma geometriya fanini o‘qituvchi rahbarligi va nazorati ostida maxsus jihozlangan chizma geometriya kabinetida o‘rganadi. Darsda o‘qituvchining nazariy ma’lumotlarni tushuntirganidan keyin shu mavzu bo‘yicha talabalar ish daftarlariда grafik ish bajaradilar. O‘qituvchi har talabaning qobiliyat va imkoniyatlarini yaxshi biladi va uni o‘quv jarayonida hisobga olishi yaxshi samara beradi. Lekin talabalar bilan individual shug‘ullanish vaqtiga

chegaralangan. O‘qituvchi har bir talabaning ishini kuzatish va ularga chizma bajarishning ratsional yo‘larini ko‘rsatish, mavzuning qiyin joylarini tushuntirish hamda bajarilgan ishlarni tekshirish imkoniyatiga ega. Shuning uchun o‘qituvchining darsni tashkil qilishiga ko‘p narsa bog‘liq. O‘qituvchining ma’lum darajada omillarga ega bo‘lishi talab qilinadi (3-rasm).

O‘qituvchining diqqat markazida hamisha talabalarda amaliy grafik ish bajarish malakalarini shakllantirish asosiy vazifa ekanligi turishi kerak. Dars turi ham shundan kelib chiqib tanlanishi zarur. Ta’lim metodlarini tanlashda albatta chizma geometriya fanining xususiyatlarini e’tiborga olish kerak. Yangi mavzuni o‘rganishda talabalarga “Hammasi tushunarlimi?” yoki “Hamma tushundimi?” qabilidagi savollar bilan murojaat qilish yaramaydi. Chunki, kamdan kam odam o‘zining tushunmasligini tan oladi. Shuning uchun “Ushbu kesimni hosil qiluvchi tekislik qanday vaziyatda



### 3-rasm. Interaktiv ta'limgarayonida o'qituvchiga bog'liq bo'lgan asosiy omillar

joylashgan?", "Konus sirtidagi A nuqtaning gorizontalliy proyeksiyasi qanday topiladi?", yoki "Pog'onali va siniq qirqimlar qanday hosil qilinadi" kabi aniq savollar bilan murojaat qilish kerak. Ayniqsa o'qituvchi doskada chizma bajarish jarayonida to'xtab, talabalarga "Keyingi yasashlarni qanday bajaramiz?" yoki "Ushbu detal chizmasini bajarishda nechta ko'rinish zarur bo'ladi?" kabi savollarni tashlashi yaxshi samara beradi. Savolning bunday qo'yilishi talabalarni bajarilayotgan ish yechimini topishning faol ishtirokchilariga aylantiradi va ularni o'ylanib, taxminlari ichidan eng to'g'riroq'ini tanlashga o'rgatadi.

Savollarni butun auditoriyaga ham, yoki alohida talabaning o'ziga ham berish mumkin. O'qituvchi dars jarayonida o'zining darsni tushuntirishiga yoki hikoyasiga ortiqcha berilib ketmasligi kerak. O'qituvchi mashg'ulot davomida sinfdagi talabalarning darsga munosabatlarini doimiy nazorat qilishi, talabalar diqqatini jalb qilish qobiliyatini egallagan bo'lishi kerak.

Dars davomida plakat, o'quv jadvallari, modellar, natural obyektlar, elektron versiyalar kabi o'quv ko'rgazmali qo'lanmalardan foydalanish ko'rgazmali metodlarga kiradi. Talabalarning eskiz va chizmalarni,

olingan bilim va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga yo'naltirilgan turli grafik mashqlarni mustaqil o'qishlari va bajarishlari amaliy metodlarga kiradi. Bu metodlarning hammasida ikki tomonlama jarayon: o'qituvchi-talaba muloqoti yetakchi o'rinda turishi kerak. O'qituvchi ta'limgarayonida tashkilotchisi sifatida asosiy o'rinda turadi.

O'qituvchi chizma geometriya o'qitish jarayonida ko'pincha talabalarga notanish bo'lgan tushuncha va atama (termin) larni ishlatishiga to'g'ri keladi. Talabalar chizma geometriyanı o'rganishlari uchun bu tushunchalarni puxta o'zlashtirib olishlari zarur bo'ladi. Ikkinci tomonidan eslab qolish kerak bo'lgan notanish atamalarning ko'pligi, nazariy tushunchalarni amaliy grafik faoliyat davomida mag'zini chaqishga zaruriyat paydo bo'lishi talabalarning fanni o'zlashtirishlariga bo'lgan ishonchini pasaytirishi mumkin. Lekin talabalar bu tushunchalarni puxta o'zlashtirmasdan chizma geometriyanı o'rgana olmaydilar. Shulami e'tiborga oladigan bo'lsak o'qituvchi oldida chizma geometriya fani tushuncha(atama)larining miqdori va sifat muammoasi paydo bo'ladi.

Chizma terminlari yetarlicha ko'p bo'lib, ular mavzular bo'yicha teng taqsimlanmagan va buning iloji ham yo'q. Chizma



geometriyadagi termin va tushunchalarni shartli ravishda uchta: geometrik, proektsion va texnik guruhlarga bo‘lish mumkin. Geometrik tushunchalarga gorizontal, vertikal, parallel, qirra, yoq, uch, kesma, nur, tekisliklar orasidagi burchak, geometrik jismlarning nomlari va b. kiradi. Asosiy proektsion tushunchalarga proyeksiyalash jarayonini nazariy tahlil qilish bilan bog‘liq

bo‘lgan barcha tushunchalar, yordamchi proektsion tushunchalarga chizma bajarish va uni taxt qilish bilan bog‘liq bo‘lgan terminlar (chizma anjomlari, DST elementlari, chiziq turlari, o‘lchamlar, shartli belgilashlar va h.) kiradi. Chizma geometriyadagi texnik terminlar (detal va yig‘ish birliklarining nomlari bilan bog‘lq bo‘lgan atamalar) texnik tushunchalar hisoblanadi.



### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Boburmirzo, Kukiev., Achilov, Nurbek, Norboy o‘g‘li & Bekqulov, Qudrat, Shaydulloyevich. (2019). Technology for creating images in autocad. European Journal of Research and Reflection in Educational Science. 7 (12), 49-54-220.
2. Shaydulloyevich, B. K. (2020). Increasing students’ graphic literacy through teaching the sciences of drafting and descriptive geometry. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (4), Part II, 75-78.
3. Achilov Nurbek Norboy o‘g‘li, Bekqulov Qudrat Shaydulloyevich, Ko‘kiyev Boburmirzo Baxodir o‘g‘li & Jumayev Isroiil Omandovlat o‘g‘li (2020). Methods of developing creative abilities in children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (10), Part II, 151-153.
4. Bekqulov Qudrat Shaydulloyevich., Kukiyev Boburmirzo Bahodir ugli., Avazova Guzal Rustambek qizi. (2020). The works in the framework of five initiatives at chirchik state pedagogical institute in tashkent region. EPRA International Journal of Research and Development, 5 (3), p. 411-412.
5. Boizaqova, S. A., Bekqulov Q.Sh. (2021). Ko‘rinishlar mavzusni tushuntirishda detal modelini o‘ziga qarab o‘rganishning ahamiyat. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 96-101.
6. Ko‘kiyev, J. S., Bekqulov Q.Sh. (2021). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI BOSHQA FANLAR BILAN BOG‘LIQLIGI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 34-39.
7. Bekqulov Q.Sh. (2021). Chizmachilik va chizma geometriya fanlarini o‘qitish orqali o‘quvchilarni grafik savodxonligni oshrish. "Экономика и социум" №10(89), С. 1314-1319.
8. Bekqulov Q.Sh. (2021). Ortogonal proyeksiyalarni qayta tuzish usullaridan foydalanib talabalarning fazoviy tassavurlarini rivojlantirish. "Экономика и социум" №10(89), С. 1314-1319.
9. Q.SH.Bekqulov. (2020) Chizmachilik va chizma geometriya fanlarini o‘qitish orqali o‘quvchilarning grafik savodxonligni oshrish. Maktab va hayot, № 2, 3-4.
10. Y.Derajne. Mustaqil ta’lim olish tizimi. Kasb-hunar ta’limi. 2001. № 6. – S.
11. Q.SH.Bekqulov. (2020) Chizmachilik va chizma geometriya fanlarini o‘qitish orqali o‘quvchilarning grafik savodxonligni oshrish. Maktab va hayot, № 2, 3-4.
12. Achilov N.N., Ko‘kiyev.B.B., Bekqulov.Q.Sh., Yaqqol atsvirlarni bajarishda AutoCAD dasturidan foydalanib loyihalash, Муғаллим ҳәм үзликсиз билимләндирүй, № 2, 122-125.
13. Qudrat Shaydulloyevich Bekqulov, Yig‘ish chizmalarini detallarga ajratishda yo‘l qo‘yadigan tipik xatolar. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 1 (3), 321-325.
14. Bekqulov Q.Sh., To‘laganova H. Chizmachilik fanidan o‘quvchilarning fazoviy tasavvurini oshirishda tugallanmagan chizmalardan foydalanish. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимләндирүй, № 3, 111-113.
15. Xalimov M., Bekqulov Q. Chizmachilik fanini o‘qitishda interaktiv metodlarni qo’llash zaruriyat. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимләндирүй, № 3, 102-105.
16. Boizaqova Sh.A., Bekqulov Q.Sh. Ko‘rinishlar mavzusni tushuntrishda detal modelini o‘ziga qarab o‘rganishning ahamiyati. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимләндирүй, № 3, 117-120.
17. Bekqulov Q.Sh., To‘laganova H. Muhandislik grafikasi fanlarida talabalarning chizma bajarishda yo‘l qo‘yadigan tipik xatolar. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимләндирүй, № 3, 107-111.

